

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 9, 30 Сентябрь

## Umumiy o'rta ta'lim o'quvchilarida harakat qobiliyatlarini nazorat qilish asoslari.

Asian International University

Teacher of the Department of Physical Culture

**Shoxrux Sirojev**

Email: [sirojevshoxruxfayzullougli@oxu.uz](mailto:sirojevshoxruxfayzullougli@oxu.uz)

**Annotatsiya.** Maqolada umumiy o'rta ta'lim o'quvchilarida harakat qobiliyatlarini shakllantirish hamda harakatlar orqali jismoniy sifatlarni takomillashtirish haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** harakat, jismoniy sifatlarni o'quvchi, ta'lim-tarbiya, chidamlilik, tezkorlik.

*O'quvchi rivojlanishining irsiy dasturlari tomonidan joylashtirilgan jismoniy imkoniyatlarning tegishli yig'indisi ato etilgan bo'lib, organlar, organizm tuzilmalarining biologik yetilishi davomida shaxsiy imkoniyatlar rivojlanib, insonning har-xil jismoniy xususiyatlarini belgilaydi. Tadqiqot ma'lumotlarga ko'ra, so'nggi 20 yil mobaynida o'quvchilarning jismoniy rivojlanishida qayd etilgan umumiy ijobiy yo'nalishlar (gavdaning barcha o'lchamlari kattalashuvi) fonida ularning harakat tayyorgarligida sezilarsiz o'sish kuzatiladi, bir qator ko'rsatkichlar esa (tezkorlik, tezlik-kuch, imkoniyatlari) ancha pasayadi. Shunga qaramay, mutaxassislar, jismoniy sifatlarni tarbiyalash, maqsadli harakat amallariga o'rgatish aynan maktabgacha va boshlag'ich ta'lim davrida boshlanishi kerak, deb hisoblaydilar.*

O'quvchilar va o'smirlar harakat faolligi sifat jihatlarini rivojlantirishning fiziologik omillari mushaklar hamda vegetativ organlar faoliyatining boshqarilishini takomillashtirishda namoyon bo'ladi. Qisqa muddatli, tezkorlik va kuch harakatlarida asab-mushak tizimi faoliyati boshqaruvini yaxshilashga ko'proq ahamiyat beriladi. Birmuncha uzoq muddatli faoliyatda harakat funksiyalarini takomillashtirish bilan birga vegetativ funksiyalarni muvofiqlashtirish ham jiddiy ahamiyat kasb etadi.

Biroq o'quvchilar va o'smirlar organizmining kuch, tezlik va chidamlilik ko'rsatkichlari yaxshilanishini belgilaydigan funksiyalarining fiziologik boshqarilishini yaxshilashda eng muhim o'rinni asab tizimi, ayniqsa, mushak zo'riqlashlarida organizmning funksiyalari yaxshilanishini ta'minlovchi

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 9, 30 Сентябрь

aloqalarning shaklanishi egallaydi. Shunday qilib, o'quvchilik davrida kuch, tezlik va chidamlilikning o'zaro aloqadorligiga oid turli-tuman shakllarni belgilovchi fiziologik mexanizmlar ham xilma-xildir. Shartli-reflektor omillar muhim ahamiyatga ega. Mashg'ulotlar davomida biror yo'nalishdagi kuch, tezlik yoki chidamlilikni rivojlantiruvchi harakatlar uchun markaziy asab tizimida mushaklar hamda vegetativ organlar ishini dasturlashtirishning ma'lum shakllari yuzaga keladi. Olimlar fikricha, o'quvchi hayotining oltinchi yili kuchni, jumladan, tezlikkuch qobiliyatlari hamda harakatlar tezkorligini tarbiyalashning sensitiv davri hisoblanadi. Olti yoshda mazkur sifatlarni shiddat bilan rivojlantirish qobiliyati saqlanib qoladi va umumiy chidamlilikni tarbiyalash imkoniyatlari paydo bo'ladi. 5-6 yoshli o'quvchilarda kuch, chidamlilik, egiluvchanlik, makonda maqsadida mo'ljal olish qobiliyatlari) bo'yicha yetti yoshli o'g'il o'quvchilar shu yoshdagi qizlardan o'zib keta boshlaydi. Biroq harakatlarni muvofiqlash qobiliyatlarining ko'pgina ko'rsatkichlari bo'yicha o'g'il o'quvchilarning yaqqol ustunligi faqat 13-14 yoshlarga kelib ko'zga tashlanadi.

B.M. Zuyev tadqiqotlarida qo'lga kiritgan ma'lumotlar muallifga turli jinsli o'quvchilarda asosiy o'lchamlari bo'yicha harakatlar aniqligining notekis va har xil muddatli rivojlanishi bilan tavsiflanishi haqida xulosa chiqarish imkonini beradi. Tajriba qizlarning besh va olti yoshlarda, o'g'il o'quvchilarning esa yetti yoshga kelib makoniy aniqlikqa oid topshiriqlarni bajarishda ustunroq ekanligini ko'rsatdi. Besh va olti yoshga o'tgan o'g'il o'quvchilarda harakatning vaqt o'lchamini takrorlash aniqligi o'quvchi qizlarnikiga nisbatan yuqoriroq, yetti yoshli o'g'il o'quvchilar esa tengdosh qizlarga nisbatan topshiriqni yomonroq uddaladilar. Qizlarning barcha yosh guruhlarida harakatning dinamik xususiyatini takrorlash aniqligi o'g'il o'quvchilardagiga karaganda yuqoriroq. Umumiy o'rta ta'lim davrida jismoniy sifatlarning rivojlanish dinamikasiga xos jinsiy tafovutlarni qayd etar ekanlar, olimlar mazkur tafovutlarning kattaliklari hamda ishonchliligi xususidagi savolga uzil-kesil javob bermaydilar. Ayrim tadqiqotchilar asosiy harakat sifatlarining rivojlanish darajasi bobida o'g'il o'quvchilarning qizlarga nisbatan ustunligi haqida fikr yuritib, o'quvchilarga jismoniy tarbiya jarayonida tabaqalashtirib yondashish zarurligini ta'kidlaydilar. Boshqalari yetti yoshgacha o'g'il o'quvchilar va qizlarning jismoniy sifatlari rivojlanish darajasidagi farq u qadar jiddiy emas, uni jismoniy tarbiya

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 9, 30 Сентябрь

vositalarini tanlashda e'tiborga olish shart emas, deb hisoblaydilar va o'quvchilar jismoniy tarbiyasiga ularning jinsidan kelib chiqib turlicha yondashish maqsadga muvofiqligini ko'rsatadilar.

Ko'pgina mualliflar maktab yoshdagi o'quvchilarda alohida harakat sifatlarining namoyon bo'lish darajasida muayyan ritm mavjudligini aniqlaganlar. Harakatlarning eng yuqori darajadagi muvofiqligi kunduz kuni kuzatilgan. Mushaklarning ishchanlik qobiliyati bahorda orta borib iyunda maksimal qiymatgacha yetadi, ayni vaqtda jismoniy rivojlanish sur'atlari ham tezlashadi.

Bunday qonuniyat Rossiyaning barcha iqlimiy mintaqalari uchun xosdir. Olimlar noqulay iqlim sharoitlari o'quvchilarning jismoniy sifatleri rivojlanishiga salbiy tasir ko'rsatishini qayd etadilar. O'quvchilarning alohida harakat qobiliyatlari rivojiga sensitiv davrlarni e'tiborga olgan holda aksentli ta'sir ko'rsatishning ulkan imkoniyatlari tajriba yordamida tasdiqlangan. Bu qobiliyatlar shu yosh uchun yetakchi jismoniy sifatleri rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, ular faqat darajani ko'tarishgagina imkon bermay, boshqalarining to'laqonli, har tomonlama shakllanishini ta'minlaydi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarda chidamlilikni tarbiyalashda jismoniy yuklamalarning tuzilishini tatbiq etar ekan, olti yoshda bir tomondan chidamlilik bilan jismoniy ishchanlik qobiliyati orasida, ikkinchi tomondan tezkorlik, tezlikkuch sifatleri va chaqqonlik orasida aloqadorlik hamda o'zaro bir-birini taqozo etish munosabatlari mavjud ekanligini, ular ko'p hollarda juda ahamiyatli ekanligini aniqladi. Buni, ehtimol, alohida harakat qobiliyatlarining rivojlanish jarayonidagi o'zaro aloqadorligi asosida yotuvchi turli mashqlar va harakatlarni bajarish vaqtida ro'y beradigan inson organizmidagi o'zgarishlar umumiyliги bilan tushuntirish mumkindir.

Yetti yoshga kelib, jismoniy qobiliyatlarning rivojlanishida miqdorning va aloqadorlik darajasining kamayishiga moyillik kuzatiladi. Kuch, tezkorlik, chidamlilik, chaqqonlikni faol rivojlantirishni bu davrda jismoniy tarbiya jarayonidagi eng muhim maqsadlardan biri deb hisoblaydilar, chunki mazkur yosh davrida o'quvchilar endi murakkab harakat faoliyatlarini bajara oladilar. Asosiy harakat turlari bo'yicha ko'nikmalarning shakllanish tezligi va mustahkamligi eng avvalo jismoniy sifatleri rivojlanish darajasiga bog'liqdir. Shuningdek, jismoniy tarbiya bilan shug'ullanmaydigan maktab o'quvchilarda harakat sifatleri ko'rsatkichlariga irsiy ta'sirotlar o'lchami xuddi tananing barcha

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 9, 30 Сентябрь

o'Ichamlari kattaliklariga (uzunligi va og'irligi) bo'lgani kabi yuqori darajadadir. Muntazam ravishda jismoniy mashqlar bilan shug'ullanib turuvchi o'quvchilar orasida o'sha dastur asosida o'tkazilgan tadqiqot harakat sifatlarining namoyon bo'lishiga irsiy ta'sirotlar darajasining pastligini ko'rsatdi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar jismoniy tarbiyasi bo'yicha turli adabiyotlarda o'quvchilarning jismoniy va harakat tayyorgarligi jarayoni mazmuni bir xil talqin etilmaydi. Masalan, darsliklarida harakat faoliyatlarini shakllantirish bilan birga jismoniy sifatlar: chaqqonlik (shu jumladan, harakatlarni muvofiqlash qobiliyatlari), umumiy chidamlilik, tezlik-kuch sifatleri, shuningdek, muvozanat saqlash qobiliyatini rivojlantirish zaruriyati qayd etiladi. O'quv qo'llanmasida kuch, chidamlilik, egiluvchanlik, chaqqonlik, tezkorlik kabi jismoniy sifatleri muvozanatni saqlash qobiliyatini alohida ajratgan holda rivojlantirish zarurati xususida so'z boradi.

Shuni qayd qilish kerakki, amaliyotchi xodim uchun muayyan usuliy tavsiyalar, tadqiqotlarda o'rnatilgan o'quvchilarning asosiy harakatlari shakllanishi hamda jismoniy sifatlarining rivojlanishiga oid yosh xususiyatlariga asoslangan yetarli miqdordagi ilmiy-usuliy adabiyotlar va dasturlar mavjud emas. Shunga ko'ra, bizningcha, jismoniy tarbiyaning asosiy tamoyillaridan biri – jismoniy tarbiya yo'nalishlarining yoshga adekvatligi tamoyili – mazkur jarayonning ustuvor yo'nalishini uning turli bosqichlarida insonning yoshga muvofiq rivojlanish tendensiyalariga mos ravishda o'zgartirishga majbur qiladigan tamoyil yetarlicha amalga oshmaydi.

Ta'lim muassasalaridagi o'qitish va tarbiyaga oid mavjud dasturlar tahlili o'quvchilar bilan kun tartibida o'tkaziladigan jismoniy tadbirlarning bosh vazifasi asosiy harakatlarning shakllanishi ekanligidan dalolat beradi. Mazkur maqsadni ro'yobga chiqarish uchun ularda, odatda, jismoniy mashqlar va harakatli o'yinlardan iborat bo'lgan keng qamrovli o'quv materiallari taqdim etilgan. Ayni vaqtda ta'lim muassasasidagi jismoniy tarbiya vazifalarida kichik yoshlardan boshlab jismoniy sifatleri maqsadli yo'naltirish zarurati to'g'risidagi mulohazalarning yo'qligi e'tiborni tortadi. Faqat tayyorlov guruhi uchun dasturda chaqqonlik, tezkorlik, chidamlilik va kuchni takomillashtirishning maqsadga muvofiqligi haqidagi muayan eslatma paydo bo'ladi. Mutaxassislarining ta'kidlashicha, kichik maktab yoshida saralashning prognostik shakli muayan murakkabliklarni yuzaga keltiradi. Yetti yoshli o'quvchilarda harakat sifatleri

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 9, 30 Сентябрь

darajasini bevosita testlash noaniq natija beradi, chunki bu natija mazkur sifatning mavjud imkoniyatlari bilan bog‘liqmi, yoki uning yoshga bog‘liq holda shakllanish sur‘atlari – tezlashgan yohud sekinlashgan sur‘atiga xos xususiyatlargami, aniq emas . Adabiyotlarda maktabgacha umumta‘lim maktablarning boshlag‘ich ta‘lim davrida harakat amallariga o‘rgatish va jismoniy sifatlarni majmualari rivojlantirish bo‘yicha yetarli miqdordagi tadqiqotlar mavjud emas.

## **Foydaniilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Sirojev Shoxrux. (2023). BEHAVIORAL CHARACTERISTICS, PRINCIPLES AND WORKING METHODS OF COACHES. American Journal Of Social Sciences And Humanity Research, 3(11), 50–60.
2. Shoxrux, S. (2023). VOLEYBOLDA OTISH TEZLIGI TUSHUNCHASI VA AHAMIYATI. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(11), 913-917.
3. Sirojev, S. (2023). THE CONCEPT AND IMPORTANCE OF SHOOTING SPEED IN VOLLEYBALL. Modern Science and Research, 2(9), 187-191.
4. Sirojev Shoxrux. (2023). THE CONNECTION BETWEEN SPORTS AND LOGIC. American Journal Of Social Sciences And Humanity Research, 3(11), 97–106.
5. Sirojev Shoxrux. (2023). APPLICATIONS OF SPORT PSYCHOLOGY IN THE WORLD. American Journal Of Social Sciences And Humanity Research, 3(11), 107–120.
6. Sirojev, S. (2023). TEACHING ACTIVITIES AND PHILOSOPHY IN PHYSICAL EDUCATION AND SPORTS. Modern Science and Research, 2(10), 235–243.
7. Sirojev Shoxrux. (2023). THE IMPORTANCE OF MUTUAL RESPECT AND KINDNESS IN SPORTS. American Journal Of Social Sciences And Humanity Research, 3(12), 215–225.
8. Sirojev, S. (2024). EFFECTS OF SOCIAL PHOBIA ON SPORTS. Modern Science and Research, 3(1), 318–326.
9. Sirojev Shoxrux. (2023). STUDYING SPORTS PSYCHOLOGY. American Journal Of Social Sciences And Humanity Research, 3(12), 176–188.

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 9, 30 Сентябрь

10. Sirojev , S. (2024). EFFECTS OF WARM-UP AND STRETCHING EXERCISES ON PROPRIOCEPTION AND BALANCE. *Modern Science and Research*, 3(2), 353–361.
11. Fayzullo o'g'li, S. S. (2023). YEVIROPA ITTIFOQI VA SPORT. *International journal of scientific researchers*, 2(2), 7-16.
12. Sirojev, S. (2024). SPORTS MASSAGE. *International Bulletin of Engineering and Technology*, 4(3), 84-88.
13. Sirojev, S. (2024). SOCIOLOGY OF DISABILITY AND SPORTS. *Modern Science and Research*, 3(2), 544-552.
14. Sirojev, S. (2024). THE ROLE OF PHYSICAL QUALITIES AND ACTION GAMES IN THE TRAINING OF YOUNG VOLLEYBALL PLAYERS. *Modern Science and Research*, 3(2), 536-543.
15. Sirojev, S. (2024). PEOPLE'S ACTION GAMES FOR THE DEVELOPMENT OF PHYSICAL QUALITIES OF 11-12-YEAR-OLD CHILDREN. *Modern Science and Research*, 3(2), 528-535.
16. Sirojev, S. (2024). THE IMPORTANCE OF THE QUALITY OF THE BALL IN THE GAME OF VOLLEYBALL. *Modern Science and Research*, 3(2), 521-527.
17. Fayzullo o'g'li, S. S. (2023). YEVIROPA ITTIFOQI VA SPORT. *International journal of scientific researchers*, 2(2), 7-16.
18. Nuriddinov, A. (2023). THE ROLE OF FAIR PLAY IN PHYSICAL EDUCATION. *Modern Science and Research*, 2(10), 244–250. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/24327>
19. Nuriddinov, A., Sayfiyev, H., & Sirojev, S. . (2023). WHY FOOTBALL IS THE FIRST SPORT THAT COMES TO MIND TODAY. *Modern Science and Research*, 2(9), 200–203. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/24104>
20. Akhrorjon Nuriddinov. (2023). A STUDY OF THE AGGRESSIVE STATUS OF FOOTBALL FANS. *American Journal Of Social Sciences And Humanity Research*, 3(11), 73–80. <https://doi.org/10.37547/ajsshr/Volume03Issue11-10>
21. Ayubovna, S. M. (2023). Physical education lessons in the process of unumpedagogik methods. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, 1(5), 345-354.

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 9, 30 Сентябрь

22. Ayubovna, S. M. (2023). Physical downloads and the rest of fulfilling exercise mutual dependence. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, 1(5), 394-409.
23. Ayubovna, S. M. (2024). Principles and models of physical education. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(3), 149-156.
24. Saidova Mahbuba Ayubovna. (2023). Physical attributes (capabilities) of development of the main legality. *Research Journal of Trauma and Disability Studies*, 2(12), 373–380. Retrieved from <http://journals.academiczone.net/index.php/rjtds/article/view/1712>
25. Ayubovna, S. M. (2023). Jismoniy tarbiyaning vositalariga va jismoniy mashqlar xarakteristikasi. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, 1 (5), 370–378.
26. Ayubovna, S. M. (2024). Gimnastikaning-ta'limni rivojlantiruvchi turlari." XXI ASRDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR, FAN VA TA'LIM TARAQQIYOTIDAGI DOLZARB MUAMMOLAR" Nomli Respublika Ilmiy-Amaliy Konferensiyasi, 2 (1), 100–107.
27. Ayubovna, S. M. (2024). Gimnastika sport turining turlari va tasniflashi." XXI ASRDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR, FAN VA TA'LIM TARAQQIYOTIDAGI DOLZARB MUAMMOLAR" nomli respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2(1), 108-115.
28. Saidova Mahbuba Ayubovna. (2023). The pedagogical category of physical exercise. Spatial exercises. *Research Journal of Trauma and Disability Studies*, 2(12), 509–518. Retrieved from <http://journals.academiczone.net/index.php/rjtds/article/view/1774>
29. Sayfiev, H. X. (2023). The Place of Gymnastics in A Person's Life and the Terms Used in Training. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, 1(9), 353-359.
30. Xayrullayevich, S. H. (2023). РАЗВИТИЕ ДВИЖИТЕЛЬНЫХ НАВЫКОВ ДЕТЕЙ МЛАДШЕГО ВОЗРАСТА С ПОМОЩЬЮ СПОРТИВНОЙ ГИМНАСТИКИ ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА КАК ИЗ. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, 1(5), 457-464.
31. Xayrullayevich, S. H. (2023). Methods and methods of teaching sports gymnastics in young boles. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, 1(10), 453-459.

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 9, 30 Сентябрь

32. Xayrullayevich, S. H. (2023). Acrobat exercise and sports gymnastika sessions through the power of development method. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157), 1(10), 460-467.
33. Xayrulloevich, S. H. (2024). Gimnastika zallardagi talablar va jihozlar." XXI ASRDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR, FAN VA TA'LIM TARAQQIYOTIDAGI DOLZARB MUAMMOLAR" Nomli Respublika Ilmiy-Amaliy Konferensiyasi, 2 (1), 125–132.
34. Yarasheva, D. (2024). SPONSORSHIP RELATIONSHIPS IN SPORTS MARKETING. *Modern Science and Research*, 3(2), 337–345. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/29029>
35. Dilnoza, Y. (2023). FOCUS ON AEROBIC (LI) TYPE OF MOTOR ACTIVITY BASED ON FITNESS PROGRAMS. *American Journal Of Social Sciences And Humanity Research*, 3(11), 81-90.
36. Yarasheva Dilnoza. (2023). METHODS OF ORGANIZING NON-TRADITIONAL FITNESS CLASSES. *American Journal Of Social Sciences And Humanity Research*, 3(11), 61–72. <https://doi.org/10.37547/ajsshr/Volume03Issue11-09>
37. Yarashova, D. (2023). THE IMPACT OF PLAYING SPORTS IN EARLY CHILDHOOD ON SOCIAL DEVELOPMENT. *Modern Science and Research*, 2(10), 230–234. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/24325>
38. Yarasheva, D. (2024). GANDBOLDA TO'PNI QO'LLASH TEXNIKALARI. *PEDAGOG*, 7(5), 13-20.
39. Yarasheva Dilnoza, . (2024). BODY HYDRATION OF FEMALE HANDBALL PLAYERS DURING THE GAME STATUS. *American Journal Of Social Sciences And Humanity Research*, 4(04), 07–14. <https://doi.org/10.37547/ajsshr/Volume04Issue04-02>
40. Dilnoza, Y. (2024). MASHG'ULOT JARAYONIDA GANDBOLCHINING FUNKSIONAL HOLATINI O'RGANISH. *PEDAGOG*, 7(6), 39-46.
41. Xayrulloevich, S. H. (2024). Gimnastikada himoya yordam berish va o'zini o'zi straxovka (himoya) qilish, jarohatlanishni oldini olish choralari sifatida." XXI ASRDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR, FAN VA TA'LIM TARAQQIYOTIDAGI DOLZARB MUAMMOLAR" Nomli Respublika Ilmiy-Amaliy Konferensiyasi, 2 (1), 116–124. XXI ASRDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR, FAN VA TA'LIM TARAQQIYOTIDAGI DOLZARB MUAMMOLAR" Nomli Respublika Ilmiy-Amaliy Konferensiyasi, 2(1), 116-124.
- 42.



# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 9, 30 Сентябрь

43. Xayrullayevich, S. H. (2023). Use of Acrobatic Exercises and Their Terms In The Process of Teaching Gymnastics. *Intersections of Faith and Culture: American Journal of Religious and Cultural Studies* (2993-2599), 1 (9), 80–86.

44. Sayfiyev, H. (2023). PEDAGOGICAL INSTRUCTIONS AND METHODS OF CONDUCTING EXERCISES IN A GYMNASTICS LESSON. *Modern Science and Research*, 2(10), 255–259. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/24329>

45. Akhrorjon Nuriddinov. (2023). USE OF DIGITAL SPORTS TECHNOLOGIES IN SPORTS TELEVISION. *American Journal Of Social Sciences And Humanity Research*, 3(11), 208–219. <https://doi.org/10.37547/ajsshr/Volume03Issue11-22>

46. Akhrorjon Nuriddinov. (2023). PHYSICAL ACTIVITY, HEALTH AND ENVIRONMENT. *American Journal Of Social Sciences And Humanity Research*, 3(12), 189–200. <https://doi.org/10.37547/ajsshr/Volume03Issue12-25>

47. Akhrorjon Nuriddinov. (2023). MANAGING THE PROCESS OF TALENT DEVELOPMENT IN SPORTS ANATASIA. *American Journal Of Social Sciences And Humanity Research*, 3(11), 121–132. <https://doi.org/10.37547/ajsshr/Volume03Issue11-15>

48. Nuriddinov, A. (2024). THE CONNECTION BETWEEN SPORT AND PHILOSOPHY. *Modern Science and Research*, 3(1), 308–317. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/28042>

49. Bahodir o'g'li, N. A. (2023). YEVROPA MAMLAKATLARIDA YUQORI MALAKALI FUTBOLCHI VA MURABBIYLARNI TEXNIK TAKTIK HARAKATLARINI TADBIQ QILISH METODIKASI. *THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH*, 2(14), 187-189.

50. Bahodir o'g'li, N. A. (2023). JISMONIY TARBIYADA FAIR PLAYNING O'RNI.

51. Nuriddinov, A. (2023). KARL MARX AND THE THOUGHTS OF CLASS THEORY ON SPORTS CULTURE. *MODERN SCIENCE AND RESEARCH*, 2(12), 249–258. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10320828>

52. Nuriddinov, A. (2024). THE CONNECTION BETWEEN SPORT AND PHILOSOPHY. *MODERN SCIENCE AND RESEARCH*, 3(1), 308–317. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10501012>

53. Bahodir o'g'li, N. A. (2023). NIMA UCHUN FUTBOL BUGUNGI KUNDA SPORT DEB ATALGANIDA BIRINCHI NAVBATDA AQLGA KELADI.